

# **FE’L SO‘Z TURKUMINI O‘TISHDA O‘QUVCHILAR NUTQNI**

## **BOYITISH USULLARI**

**f.f.n. Sh.Almamatova,JDPI**

Fe’l so‘z turkumini o‘tishda ma’nodosh so‘zlar yordamida nutqni boyitishning usullari juda ham ko‘p va rang-barangdir. Bu usullarga o‘tishdan oldin “usul” degani nima? degan savolga javob topib ko‘ramiz. Usul ma’lum bir narsani qanday qilib tushuntirish kerakligini ko‘rsatuvchi, uning ma’qul taraflarini oldindan ko‘rishga xizmat qiladigan tushunchadir.<sup>1</sup>Usul asli arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, yo‘l, uslub degan ma’nolarni bildiradi.<sup>2</sup>

Dars jarayonida o‘qituvchilar bir nechta usullardan foydalanadilar. Bu o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga hamda darsda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi. “Pedagogik texnologiya o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘ligan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir”, - deb aytgan edi V.P.Bespalko.<sup>3</sup>Metodik jihatdan darsda va darsdan tashqaridagi mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiya joriy qilinadi.

O‘qituvchi dars jarayonida bir nechta texnologiyalardan foydalanadi.Ushbu mavzuni o‘tishda quyidagi usullardan foydalanilsa, darsning qiziqarli o‘tishi ta’milanadi va ushbu dars o‘quvchilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi:

### **1.O‘quvchilar bilan individual ishslash.**

O‘quvchilar bilan individual ishslash ta’lim jarayonini o‘ziga xos usulda olib borishdir. Individual ishslash jarayonida o‘quvchilarning qobiliyatları, nimalarga qodirliklari aniqlanib, shunga mos bo‘lgan turli topshiriqlar, ta’limiy o‘yinlar berilishi mumkin, masalan:

---

<sup>1</sup> M.Abduraimova. Ona tili ta’limida yangi pedagogik texnologiya.T.:2001.

<sup>2</sup> Yu.K. Babanskiy. Hozirgi zamon umumta’lim mакtabida o‘qitish metodlari. T.:1990.

<sup>3</sup> Bespalko V.P. Slagayemsiye pedagogicheskoy texnologii. M.: 1989.


### a). “Eslab qol” o‘yini.

Bunda o‘quvchilarga sinonim so‘zlar aralashtirib o‘qib beriladi, o‘quvchilar esa ushbu so‘zlardan sinonimik uyalar hosil qilishlari kerak bo‘ladi:  
*gapirmoq,kulmoq,yurmoq,jilmaymoq,ohlamoq,dodlamoq,so‘zlamoq,demoq,chop moq, baqirmoq, aytnomoq, siljimoq, ishshaymoq, tabassum qilmoq, sevmoq, uxlamoq, mizg‘imoq, dam olmoq, yaxshi ko‘rmoq, ming‘illamoq.*

Bu o‘yin o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlab qolmasdan, ularning fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

### b). “O‘yla,izla,top” o‘yini.

Bunda o‘quvchilarga sinonimik uyaga mansub bo‘lgan fe’llar va evfemizmlar aralashtirilgan holda beriladi. O‘quvchilar esa ushbu misollarni ikki guruhga ajratib ularga izoh berishlari kerak bo‘ladi.



Ona tili ta’limining eng muhim masalalaridan biri o‘quvchilar nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shuning uchun ham ona tili o‘qitishining bosh maqsadi qilib o‘quvchilarni ijodiylikka, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos holda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon, aniq, mantiqli ifodalay olish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilmog‘i kerak. Buning uchun nutqiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashqlar tizimini tanlash zarur. Bunda oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga, osondan

qiyinga yo‘naltirish kabi umumdidaktik tamoyillar bilan birga yangi pedagogik texnologiyalarga amal qilish ham kerak bo‘ladi.

Ana shunday usullardan biri **Erkin xat (esse)** deb nomlanadi. Bunda besh daqiqa davomida o‘quvchilar sinonimlar qatnashtirgan holda mustaqil ravishda biror mavzu bo‘yicha to‘xtamasdan fikr yozishi va yozgan fikrini mustaqil ravishda og‘zaki tarzda aytib beradi:

*O‘zbekiston haqida gapirganimda yuraklarim hayajonga to‘lib ketadi. Boshqalarining Vatanim haqida biror narsa deyayotganligini eshitsam, sportchilarimizning g‘alabalari natijasida davlatimiz bayrog‘i balandlarga hilpiraganda, madhiyamiz kuylanganda yuraklarim faxr-iftixorga to‘lib ketadi, ko‘zlarimdan yoshlар marjon kabi to‘kiladi.*

Aynan mana shunday matn yaratilib, keyin ushbu matnda qo‘llangan fe’llarning ham sinonimlari topiladi. Bu esa ham nutqni boyitadi, ham sinonimlik hoidisasini to‘liq tushunishga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsadida “Zanjir” o‘yin-topshirig‘ini o‘tkazish mumkin.Bunda o‘quvchining qo‘liga kubik beriladi,u sinonimi mavjud bo‘lgan fe’lni aytib kubikni boshqa o‘quvchiga berishi kerak , undan keyingisi esa aytilgan fe’lning sinonimini aytib kubikni boshqa bir o‘quvchiga uzatadi. Shart shu asosda davom ettiriladi. Shartni bajara olmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Oxirida qolgan o‘quvchi g‘olib sanaladi.


Yoki “**So‘zlar bizdan, matn tuzish sizdan**” o‘yinida o‘qituvchi sinf o‘quvchilariga tayanch so‘zlar beradi. Bu so‘zlar, albatta, sinonim fe’llardan iborat bo‘ladi.O‘quvchilar shu so‘zlar ishtirokida matn tuzishadi. Tez va mazmunli matn tuzgan o‘quvchi yoki o‘quvchilar g‘olib sanaladi.

O‘quvchilarning nutqida so‘zlarning takroriy qo‘llanishi, berilgan so‘zlarni ularning ma’nodoshi bilan almashtira olmaslik hollari ko‘p. Bu, albatta, o‘quvchilar so‘z boyligining yetarli emasligidandir.

DTSning takomillashgan tahririda o‘quvchilar nutqini o‘stirishni asosiy masala sifatida ta’kidlagan va “...o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish, adabiy til me’yorlarini o‘rgatish,adabiy talaffuz me’yorlari, shuningdek, lug‘aviy sinonimlar, qo‘shimchalar sinonimikasi, grammatik sinonimika bilan tanishtirish, o‘quvchilarda fikrni og‘zaki va yozma bog‘lanishli bayon qilish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish” belgilangan.<sup>4</sup>

## **2.O‘quvchilar bilan guruh bo‘lib ishlash.**

O‘quvchilarning fe’l so‘z turkumi va sinonimlarga oid bo‘lgan bilimlarini sinab ko‘rish uchun “**Bu bizniki**” degan o‘yin – topshirig‘ini uyushtirish ham yaxshi natija beradi. Bunda doskaga fe’l so‘z turkumiga oid bo‘lgan sinonimlar aralashtirib yoziladi. Bu so‘zlarni nutqiy, aqliy, harakat fe’llari kabi turlarga ajratish kerak bo‘ladi. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linib, har bir guruh o‘zining so‘zlarini yozib oladilar va izohlaydilar. Izohlash barobarida ularning bir-biridan farqli tomonlarini ham aytib o‘tish kerak bo‘ladi:



O‘ylamoq, gapirmoq, yugurmoq,  
pichirlamoq, fikrlamoq,  
ming‘illamoq, idrok etmoq,  
so‘zlamoq, bo‘kirmoq, tasavvur  
qilmoq, hayol qilmoq, chopmoq,  
harakatlanmoq,..

---

<sup>4</sup> T.Almamatov, Q.Yadgarov, Sh.Almamatova. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. T.: 2013.

Hozirgi ta’limning bosh maqsadlaridan biri o‘quvchilar nutqini o‘stirishdir. Bu vazifani amalga oshirish maqsadida quyidagi noan’anaviy ish usullaridan foydalinish mumkin:

1.Biror matnni o‘qish va mazmunini so‘zlab berish. Bunda o‘qish tezligiga e’tibor beriladi.

2.Matndagi fe’llarni aniqlash, ularning qanday gap bo‘lagi vazifasida kelganligini toppish.


3.Berilgan gap mazmunini davom ettirib, matn hosil qilish: Men har kuni institutga boraman.


4.Berilgan maqol yoki hikmatli so‘zlarni sharxlash, ularning tarkibidagi fe’llarni aniqlash va tahlil qilish.

5.Berilgan matn asosida muzokara o‘tkazish, matndagi fe’llarning qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelayotganligini aniqlash.

Bu usullar natijasida o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘z nutqlarini rivojlantirib boradilar. Bundan tashqari, nutqni o‘stiruvchi metod va usullar bilan ham yaqindan tanishib oladilar.

Bundan tashqari o‘quvchilar bilan sinonimlarga oid bo‘lgan yana bir topshiriqni bajarishimiz mumkin. Bu usul “**Klaster**” usuli deb ataladi. Klaster inglizcha bosh, bir shingil degan ma’nolarini bildiradi. Bunda ushbu mavzuni o‘tishda fe’llarning ma’no turlariga xos bo‘lgan ma’nodosh so‘zlarni to‘plash kerak bo‘ladi:





Ona tili ta'limi jarayonida bunday topshiriqlar tizimi orqali til hodisalari kuzatiladi, solishtiriladi, taqqoslanadi, o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi. bunday tahlillar orqali muayyan belgilarga, umumiyligida xususiyatlarga qarab guruhlanadi, umumlashtiriladi. O'quvchilar nutqining ravonligi bevosita tafakkur rivoji bilan bog'liq bo'ladi. Berilgan topshiriqlar qayta xotirlash, ijodiy fikrlash xarakterida bo'ladigan bo'lsa, ular, albatta, o'quvchi tafakkuri rivojiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'quvchilarning topshiriq bajarishi ikki usul bilan amalga oshadi: deduktiv va induktiv. Diduktiv usulda o'quvchi qoidadan mashqqa qarab boradi. Induktiv usulda esa, o'quvchi misol, tajribalardan qoida, umumlashmaga qarab boradi, ya'ni misollar topib, ularni solishtirib, guruhlab xulosaga keladi. Bu metod hodisalarning mohiyatini ochib beradi<sup>5</sup>.

Yuqoridagi topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar bir – biri bilan bahslashadi, musobaqalashadi, natijada, fikrlash, fikr mahsulini to'g'ri ifodalab olish malakalarini egallay boradi. Ushbu mavzu yuzasidan yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirib boradi.

<sup>5</sup> O'. Tolipov, N. Xo'jayev, S. Madyarova, E. Eshchinova. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.:2009.

